Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

DEMOGRAFIK STATISTIKA KO‘RSATKICHLARINI HISOBLASHDA XALQARO METODOLOGIK STANDARTLAR VA ULARNI MILLIY AMALIYOTGA JORIY ETISH MUAMMOLARI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

GULMANOV MAXSUD AMINOVICH
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, I.f.n. dots.
MADRAIMOV XABIBULLA MADAMINOVICH
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil (PhD) izlanuvchisi
xmadirimov@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida demografik statistika ko‘rsatkichlarini hisoblashda xalqaro metodologik standartlarni milliy amaliyotga joriy etishning konseptual va institutsional muammolari tahlil qilingan. Tug‘ilish (CBR), o‘lim (CDR), tabiiy o‘sish (CNI), demografik yuk koeffitsiyentlari (TDR, ODR, DOI) hisoblanishida xalqaro standartlarning O‘zbekiston rasmiy statistika tizimiga moslashtirilish darajasi 2024–2026-yillar haqiqiy ma’lumotlari asosida baholangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun 2025-yil hisob-kitoblari (CBR=19,2‰; aholi 2 053,2 ming kishi) keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *demografik statistika, xalqaro metodologik standartlar, BMT tavsiyalari, ILO standartlari, Eurostat, demografik yuk koeffitsiyenti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi.*

Аннотация. В статье на примере Республики Каракалпакстан проанализированы концептуальные и институциональные проблемы внедрения международных методологических стандартов в национальную практику расчёта показателей демографической статистики. На основе фактических данных за 2024–2026 годы оценена степень адаптации международных стандартов (ООН, Евростат, МОТ) при расчёте коэффициентов рождаемости (CBR), смертности (CDR), естественного прироста (CNI), а также коэффициентов демографической нагрузки (TDR, ODR, DOI). Приведены расчёты для Республики Каракалпакстан за 2025 год (CBR=19,2‰; численность населения 2 053,2 тыс. человек).

Ключевые слова: *демографическая статистика, международные методологические стандарты, рекомендации ООН, стандарты МОТ, Евростат, коэффициент демографической нагрузки, Республика Каракалпакстан.*

Abstract. The article analyzes the conceptual and institutional problems of implementing international methodological standards in the national practice of calculating demographic statistical indicators on the example of the Republic of Karakalpakstan. Based on actual data for 2024–2026, the degree of adaptation of

Published: 05.06.2026

Cite this article: Gulmanov Maxsud Aminovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich (2026). Demografik statistika ko‘rsatkichlarini hisoblashda xalqaro metodologik standartlar va ularni milliy amaliyotga joriy etish muammolari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/772

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

international standards (UN, Eurostat, ILO) is assessed in calculating birth rate (CBR), death rate (CDR), natural increase (CNI) and demographic dependency coefficients (TDR, ODR, DOI). Calculations for the Republic of Karakalpakstan for 2025 are presented (CBR=19.2‰; population 2,053.2 thousand people).

Keywords: *demographic statistics, international methodological standards, UN recommendations, ILO standards, Eurostat, demographic dependency ratio, Republic of Karakalpakstan.*

Kirish

Zamonaviy davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlarning ilmiy asosi sifatida sifatli demografik statistika tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Principles and Recommendations for Population and Housing Censuses” (Rev. 3, 2017) hujjati [1] va Eurostat metodologik tavsiyalari [2] demografik ko‘rsatkichlarni hisoblashning xalqaro standartlarini belgilab beradi. Biroq milliy statistika tizimlari ushbu standartlarni amaliyotda joriy etishda qator konseptual va institutsional muammolarga duch keladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston—2030” strategiyasi [3] va 2026-yilda o‘tkazilayotgan aholini ro‘yxatga olish konteksida demografik statistika ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish dolzarb vazifaga aylangan. 2026-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi soni 2 053,2 ming kishini tashkil etgan [4]. Mintaqa Orol dengizi havzasidagi ekologik-demografik xususiyatlari, o‘ziga xos yosh tarkibi va migratsion holati bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning maqsadi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida demografik statistika ko‘rsatkichlarini hisoblashda xalqaro metodologik standartlarning joriy etilish darajasini baholash va milliy amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Metodlar

Tadqiqotda qiyosiy metodologik tahlil (BMT Statistika bo‘limi, Eurostat va ILO tavsiyalarini O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi metodologiyasi bilan taqqoslash), dinamik tahlil (2024–2026-yillar ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi) va koeffitsiyent tahlili metodlaridan foydalanilgan.

Tabiiy harakat ko‘rsatkichlari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$CBR = (B / \bar{P}) \times 1000 \qquad CDR = (D / \bar{P}) \times 1000$$

$$CNI = CBR - CDR \qquad IMR = (D_0 / B) \times 1000$$

bu yerda B — yil davomida tirik tug‘ilganlar soni; D — yil davomida o‘lganlar soni; D_0 — bir yoshgacha bo‘lgan go‘daklar o‘limi; $\bar{P}$ — o‘rtacha yillik aholi soni. Demografik yuk koeffitsiyentlari uchun:

$$TDR = (P_{0-14} + P_{60+}) / P_{15-59} \qquad DOI = P_{15-59} / (P_{0-14} + P_{60+})$$

Ma’lumotlar bazasi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasining 2024-yil 1-yanvar (P=2 002,7 ming) [5], 2025-yil 1-yanvar (P=2

029,7 ming) [6] holatiga rasmiy hisobotlari hamda 2025-yilda 39 277 ta tirik tug‘ilish bo‘yicha ma’lumot [7]. ILO tomonidan ishlab chiqilgan 19-CICST qarori (2013) standartlari [8] mehnat bozori ko‘rsatkichlari uchun, Bloom-Canning-Sevilla (2003) klassik nazariyasi [9] demografik dividend uchun nazariy asos sifatida xizmat qilgan.

Natijalar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 2025-yil uchun olib borilgan hisob-kitoblar quyidagi natijalarni bergan: o‘rtacha yillik aholi $\bar{P}_{2025}$ = (2 029 700 + 2 053 200) / 2 = 2 041 450 kishi; tug‘ilish koeffitsiyenti CBR_{2025} = (39 277 / 2 041 450) × 1000 = 19,24‰. Aholi zichligi 2026-yil 1-yanvar holatiga 12,3 kishi/km²ni, kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi 73 yoshni tashkil etdi [10]. Bu ko‘rsatkichlar BMT va WHO standartlariga muvofiq hisoblangan.

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi demografik ko‘rsatkichlari va xalqaro standartlar (2024–2026)

Ko‘rsatkich	2024	2025	2026	Standart	Holati
Aholi soni, ming kishi	2 002,7	2 029,7	2 053,2	BMT	Mos keladi
Tirik tug‘ilganlar	—	39 277	—	WHO	Mos keladi
CBR (tug‘ilish), ‰	—	**19,24**	—	BMT	Mos keladi
Aholi zichligi, kishi/km²	—	—	12,3	BMT	Mos keladi
Umr ko‘rish, yosh	73,0	—	—	WHO	Mos keladi
DOI (imkoniyat)	—	hisoblanmaydi	hisoblanmaydi	Bloom-CS	Joriy etish kerak

Manba: muallif tomonidan QR Statistika boshqarmasi, BMT va WHO tavsiyalari asosida tuzilgan.

Mehnat resurslari va bandlik ko‘rsatkichlarini hisoblashda O‘zbekiston Respublikasi miqyosida 2025-yil 3-chorak yakuniga ko‘ra ishsizlik darajasi 4,9 foizga tushgan, mehnat resurslari 20,35 mln, iqtisodiy faol aholi 15,57 mln, band aholi 14,81 mln kishini tashkil etgan [11]. Biroq norasmiy bandlikni baholashda 20-CICST tomonidan qabul qilingan ICSE-18 yangi xalqaro tasnifi (2018) [12] hozircha milliy amaliyotda to‘liq joriy etilmagan.


“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilishda kambag‘allik darajasi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. 2024-yil yakuniga ko‘ra mintaqada kambag‘allik darajasi 13,6 foizdan 10,8 foizga (2,8 pp) pasaygan [13], bu mintaqaviy ijtimoiy siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi.

Demografik ko‘rsatkichlar dinamikasini chuqurroq tahlil qilish uchun 2020–2026-yillar oralig‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi soni, tug‘ilish koeffitsiyenti dinamikasi va aholining yosh tarkibi tahlili 1-rasmda taqdim etilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholi soni 1 924,1 ming kishidan 2 053,2 ming kishigacha o‘sgan (yiliga o‘rtacha 1,1 foiz), tug‘ilish koeffitsiyenti esa 25,9 promilledan 18,8 promillegacha pasaygan (27,4 foiz pasayish). Mintaqa demografik o‘tish jarayonining faol bosqichida ekanligini, mehnat yoshidagi aholi ulushi 51,6 foizni tashkil etib, demografik imkoniyat oynasi indeksi (DOI=1,067) ochiq holatida ekanligini ko‘rsatadi.

1-rasm

Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi dinamikasi va yosh tarkibi (2020–2026)



Manba: muallif tomonidan QR Statistika boshqarmasi rasmiy ma’lumotlari va Bloom-Canning-Sevilla (2003) kontseptsiyasi asosida tuzilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining demografik holatini O‘zbekiston mintaqalari bilan taqqoslab tahlil qilish ham metodologik ahamiyat kasb etadi. 2-jadvalda asosiy demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha qiyosiy tahlil keltirilgan.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston mintaqalari demografik ko‘rsatkichlari qiyosi (2025)

Mintaqa	Aholi (ming)	CBR, ‰	Zichlik, k/km²	Umr ko‘rish	TFR
Qoraqalpog‘iston R.	**2 053,2**	**19,2**	**12,3**	**73,0**	**3,10**

Toshkent shahri	3 100+	12,5	6 909,6	76,8	1,85
Andijon viloyati	3 360+	16,8	801,3	75,5	2,90
Surxondaryo viloyati	2 940+	22,5	118,2	74,8	3,70
Navoiy viloyati	1 100+	17,1	9,8	75,0	2,75
O‘zbekiston jami	**37 543**	**22,0**	**84,0**	**75,1**	**3,15**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi va QR Statistika boshqarmasi 2025-yil ma’lumotlari asosida.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasining CBR ko‘rsatkichi (19,2‰) O‘zbekiston o‘rtachasidan (22,0‰) past, biroq aholi zichligi (12,3 kishi/km²) eng past darajada saqlanmoqda. Bu mintaqaning ekstensiv hududiy salohiyatini aks ettirib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion klasterlarni shakllantirish uchun strategik imkoniyat yaratadi. Umr ko‘rish davomiyligi (73 yosh) respublika o‘rtachasidan (75,1) sezilarli farq qiladi, bu sog‘liqni saqlash xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha sa’y-harakatlar zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama

Olingan natijalar Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik statistika tizimi xalqaro standartlarga umumiy holda muvofiq ekanligini ko‘rsatadi, biroq uchta asosiy konseptual va institutsional muammoni aniqlash mumkin. Birinchidan, demografik imkoniyat oynasi indeksi (DOI) O‘zbekiston rasmiy statistik hisobotlarida muntazam ravishda hisoblanmaydi. Ikkinchidan, ICSE-18 bo‘yicha norasmiy bandlik tasnifi institutsional jihatdan to‘liq joriy etilmagan. Uchinchidan, jami fertillik koeffitsiyentini (TFR) hisoblashda kogorta yondashuvining yetishmasligi uzoq muddatli demografik prognoz aniqligiga ta’sir qiladi [14].

Mintaqaviy darajada bu muammolar yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston kabi yuqori migratsiya intensivligiga ega mintaqalarda $\bar{P}$ (o‘rtacha yillik aholi soni) ni hisoblashda nafaqat yashash joyi bo‘yicha aholi (de jure), balki haqiqiy yashash bo‘yicha (de facto) hisobini ham yuritish maqsadga muvofiq. Shuningdek, OECD tomonidan tavsiya etilgan raqamli iqtisodiyot indikatorlari [15] milliy statistika tizimida yetarli darajada qamrab olinmagan.

Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun quyidagi takliflar shakllantiriladi: birinchidan, milliy statistika tizimida TFR ning kuzatuvchi va kogorta variantlarini parallel hisoblashni joriy etish; ikkinchidan, DOI va oltin yosh indikatorlarini Milliy statistika qo‘mitasining yillik demografik hisobotlariga rasmiy ravishda kiritish; uchinchidan, ICSE-18 ning ikki bosqichli joriy etish dasturini ishlab chiqish (2026–2028); to‘rtinchidan, mintaqaviy statistika boshqarmalari xodimlari

uchun xalqaro metodologik standartlar bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish; beshinchidan, OECD raqamli iqtisodiyot indikatorlari to‘plamini joriy etish bo‘yicha pilot loyiha amalga oshirish.

Xulosa

Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, demografik statistika ko‘rsatkichlarining asosiy qismi (CBR, CDR, CNI, IMR, TDR) BMT, Eurostat va WHO xalqaro standartlariga muvofiq hisoblanadi. 2025-yil uchun CBR=19,24‰ qiymati mintaqa demografik holatining barqaror dinamikada ekanligini ko‘rsatadi. Biroq TFR ning kogorta varianti, DOI indeksi va ICSE-18 norasmiy bandlik tasnifi singari zamonaviy xalqaro metodologik vositalarning milliy amaliyotda to‘liq joriy etilmaganligi statistik diagnostika va prognoz sifatini cheklaydi.

Maqolada ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekiston Milliy statistika tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, mintaqaviy statistika boshqarmalarining institutsional salohiyatini oshirish va aholini ro‘yxatga olish — 2026 doirasida zamonaviy metodologik vositalarni qo‘llash uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] United Nations Statistics Division. Principles and Recommendations for Population and Housing Censuses, Rev. 3. — New York: UN, 2017. — URL: https://unstats.un.org.

[2] Eurostat. Demography Statistics Methodological Manual. — Luxembourg: Publications Office of the EU, 2024. — URL: https://ec.europa.eu/eurostat.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. — URL: https://lex.uz/docs/5031048.

[4] Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi. 2026-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 2 053,2 ming kishi. — URL: https://www.qrstat.uz.

[5] Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi. 2024-yil 1-yanvar holatiga aholi soni 2 002,7 ming. — URL: https://stat.uz.

[6] Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi. 2025-yil 1-yanvar holatiga aholi soni 2 029,7 ming. — URL: https://www.qrstat.uz.

[7] Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi. 2025-yilda 39 277 ta tirik tug‘ilish qayd etilgan. — URL: https://www.qrstat.uz.

[8] International Labour Organization. Resolution concerning statistics of work, employment and labour underutilization (19th ICLS). — Geneva: ILO, 2013.

[9] Bloom D.E., Canning D., Sevilla J. The Demographic Dividend: A New Perspective on the Economic Consequences of Population Change. — Santa Monica: RAND Corporation, 2003. — 129 p.

[10] Daryo. O‘zbekistonning qaysi hududida eng ko‘p chaqaloq tug‘ildi? — 2025-yil 29-may. — URL: https://daryo.uz.
[11] Spot.uz. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi 5% dan pasaydi. — 2025-yil 13-noyabr. — URL: https://www.spot.uz.
[12] International Labour Organization. Resolution concerning statistics on work relationships (ICSE-18, 20th ICLS). — Geneva: ILO, 2018.
[13] Gazeta.uz. O‘zbekistonda 2024-yilda kambag‘allik darajasi 8,9 foizga qisqardi. — 2025-yil 3-fevral. — URL: https://www.gazeta.uz.
[14] World Health Organization. Indicator Metadata Registry: Maternal and Reproductive Health. — Geneva: WHO, 2024. — URL: https://www.who.int/data/gho.
[15] OECD. Going Digital Toolkit: Indicators for Measuring the Digital Economy. — Paris: OECD Publishing, 2022. — URL: https://goingdigital.oecd.org.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
— Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —